



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 3 - mart

VI-59-49-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘ining axboroti haqida

Oila va xotin-qizlar bo‘limi, tibbiyot birlashmasi, FHDYO bo‘limi bilan birgalikda yanvar, aprel oylarida mahallalarda oila mustahkamligi avvalo, farzand tarbiyasiga bog‘liq ekanligiga alohida e‘tibor qaratgan holda ota-onalar o‘rtasida farzand tarbiyasi yuzasidan muntazam tushuntirish ishlari, davra suhbatlari o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, “Farzand tarbiyasi haqida nimani bilasiz?” mavzusida mahalla fuqarolar yig‘inlarida, boshlang‘ich xotin-qizlar Kengashi tomonidan o‘quv muassasalarda va mahalla fuqarolar yig‘inlarida qiz bolani barvaqt turmushga berish va qarindosh-urug‘lar o‘rtasida nikoh qurilishini oldini olish borasida davra suhbatlari o‘tkazildi va tumandagi mavjud o‘quv muassasalarida tibbiy, madaniy, oila farzandning burch va vazifalari yuzasidan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ta‘sirchanligini oshirishga erishib borilmoqda.

Tumanda ommaviy axborot vositalari (telegram va facebook) ijtimoiy tarmoqlari orqali soha mutaxassislari orqali aholi o‘rtasida yaqin qarindoshlar va yoshlar o‘rtasida erta turmushning oldini olishga, oilalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni barqarorlashtirishga qaratilgan mavzular yoritilib borilmoqda.

Yoshlarni sog‘lom hayotga tayyorlash va erta nikohning oldini olish, mahallalarda qarindosh-urug‘lar o‘rtasida bo‘ladigan nikohning oldini olish maqsadida joylardagi mahallalarda “Oila va nikoh” mavzusida, “Sog‘lom oila – yurt tayanchi” mavzusida qisqa muddatli majburiy o‘quv kurslar tashkil etilib, bunda Oila va xotin-qizlar bo‘limi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda “Oila – muqaddas”, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “oila – jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish, nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budjeti reproduktiv salomatlik asoslari, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo‘yicha tizimli tayyorlashga hamda oilalar mustahkamligini ta‘minlash,

oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog‘lom ma‘naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash o‘quv markazida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

Oila va Xotin-qizlar bo‘limi, Tibbiyot birlashmasi, “Angor Yog‘dusi” gazetasi bilan hamkorlikda “Ovqatlanish qoidalari” “Oshxonada gigiyenik qoidalar”, “Bola parvarishi”, “Homilador va tuqqan ayol parvarishi”, “Keksalar parvarishi”, “Hojatxona tutish tartibi”, “Nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tish koni foyda”, “Nikoh shartnomasi – huquqingiz ifodasi”, “Erta turmush oqibati” mavzularida aholi orasida targ‘ibot va tashviqotlar olib borilmoqda.

Mahallalar kesimida notinch, ajrim yoqasidagi oilalarning alohida ro‘yxatlari shakllantirilib, ularga mahalla faollari “Qaynonalar kengashi” a‘zolari biriktirilib, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan fuqarolar yig‘inining “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi” faoliyatini yanada jonlantirish, komissiya faoliyatida imom-xatiblarning ta‘sirini kuchaytirish, mahallalardagi ajrim yoqasiga kelgan oilalarni yarashtirishda “Qaynonalar kengashi” faoliyatidan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Tumanda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Oila va Xotin-qizlar bo‘limi Tibbiyot birlashmasi hamkorligida tumandagi 36 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida, “Ayollar maslahat kengashi” tuzilgan bo‘lib, mahalla hududidagi umumta‘lim maktablari binosidan alohida 2 ta xona ajratilib, nizom talablari asosida jihozlanib, aholi o‘rtasida, ayniqsa, ayollar va turmush qurish arafasidagi yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sog‘lom oila barpo etish, sog‘lom farzandlar tug‘ilishi va tarbiyasiga, homilador ayollar va bolalarni parvarishlash bo‘yicha oila a‘zolarining mas‘uliyatini oshirish, bola parvarishi bo‘yicha ota-onalar ko‘nikmalarini yaxshilash, yuqumli kasalliklarni oldini olish, ayollar va bolalarda ovqatlanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli targ‘ibot ishlari oylik reja asosida olib borilmoqda.

Oila va Xotin-qizlar bo‘limi, Tibbiyot birlashmasi, FHDYO bo‘limi bilan birgalikda aholi o‘rtasida salomatlik va sog‘lom avlodni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzi masalalari bo‘yicha keng aholi vakillarini jalb etgan holda “Bo‘lajak kelin kuyovlarga”, “Yosh ota-onalarga”, “Ona sutining ahamiyati”, “Kamqonlik haqida nimalarni bilasiz?”, “Men baxtli ona bo‘laman” kabi mavzularda tushuntirish, targ‘ibot ishlari olib borildi.

Ayollarga nisbatan mehnat qonunchiligi me‘yorlarini buzilishining oldini olish maqsadida, mehnat shartnomalari asossiz bekor qilinganda, ishga qabul qilishda vakant ish o‘rinlarini yashirganda va ayol huquqlarini kamsituvchi boshqa shunga o‘xshash holatlar ro‘y berishining oldini olish maqsadida ish beruvchining mas‘ulligini oshirish

borasida oila va xotin-qizlar bo‘limi, Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan hamkorlikda muntazam tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Gender zo‘ravonlikning oldini olish, gender tenglikka erishish maqsadida tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi qoshida faoliyat olib borayotgan “Zo‘ravonliksiz oila” loyihasi doirasida tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida, umumta’lim maktablarida va korxonalar, tashkilotlarda reja asosida 25-noyabr – Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘qotish uchun xalqaro kurash kuni” munosabati bilan “Gender zo‘ravonlikka qarshi 16 kun faol harakatlar!” mavzusida tadbirlar o‘tkazildi va ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.

Bundan tashqari, tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi, tuman tibbiyot birlashmasi, tuman Xalq ta’limi bo‘limlari ishtirokida tuzilgan memorandum asosida umumta’lim maktablari va turli tashkilot hamda idoralarda Gender tenglikni ta’minlash, mamlakatimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyat va sharoitlar, oilalarda maishiy zo‘ravonliklarning oldini olish, aholi ayniqsa, xotin-qizlarning tibbiy va huquqiy madaniyatini oshirish, qiz bolalarning ertangi maqsadi, erta turmush, erta tug‘ruqning salbiy oqibatlari kabi mavzularda seminarlar, davra suhbatlari o‘tkazib kelinmoqda. Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo‘rlik ishlatilishiga duch kelgan 56 nafar ayollarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va moddiy yordam ko‘rsatildi, reabilitatsiya markazi hamda “Barqaror hayot” NNT tomonidan ruhshunos hamda huquqshunos maslahatlari tashkil etildi.

Markazlarda oilaviy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar vaqtinchalik yashab turishlari uchun, muhtoj shaxslarga «ishonch telefoni» orqali maslahat berish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida, aholiga, xususan xotin-qizlarga bukletlar tarqatildi.

Angor tumanidagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlarida har yili oila va xotin-qizlar bo‘limi tomonidan Oliy Majlis Senati, O‘zbekiston Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi va BMTning Aholishunoslik jamg‘armasining (YuNFPA) O‘zbekistondagi vakolatxonasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi Delegatsiyasi bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan “Gender tenglik faoli” nomli milliy tanlovi o‘tkazilmoqda. Ushbu tanlov “25 noyabr - Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish” xalqaro kunida boshlanib, “10 dekabr - Inson huquqlari” kuniga qadar davom etadi. “Zo‘ravonlikka qarshi birgalikda kurashamiz!” mavzusidagi davra suhbatlari o‘tkazildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Rajabovanning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergan axborotini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha tumanda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi yuzasidan 2023-yil davomida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Rajabovaning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova)ga tumandagi mutasaddi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda:

- 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash;

- tumanda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

- oila va xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish;

- xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish, hududlarda xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

- xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida tizimli ishlar tashkil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- tumandagi xotin-qizlar murojaatlarini o‘rganish va muammolar yechimi bo‘yicha ishlarni o‘z vaqtida hal etish choralari ko‘rish;

- tuman hokimligi bilan birgalikda rahbarlik lavozimlariga tavsiya etishda ayollar ulushini oshirishga alohida e’tibor qaratish;

- mahallalarda obro‘-e’tiborli, bilimli xotin-qizlardan tashkil topgan “Oqila ayollar” harakatidan foydalanish hamda ular ishtirokida seminarlar ko‘lamini kengaytirish;

- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o‘rni haqida jamiyatda

shakllangan salbiy qarashlarni o'zgartirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va bu borada ommaviy axborot vositalarida chiqishlar sonini ko'paytirish;

- xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xotin-qizlarda tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokim yordamchisi bilan hamkorlik qilish;

- "Ayollar maslahat kengashlari" bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiyhuquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

- xotin-qizlarni uy-joy sharoitini yaxshilash, mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini tashkil qilish, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga muhtoj bo'lgan xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va bartaraf etish yuzasidan tegishli choralarni belgilash vazifasi topshirilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo'limi (S.Choriyev), tuman prokuraturasi (S.Ramazonov) tumandagi mutasaddi korxon va tashkilotlar bilan hamkorlikda:

- xotin-qizlar o'rtasidagi turli xil ko'rinishdagi jinoyatchilik, o'z joniga qasd va suiqasd, oilaviy ajralishlarning oldini olish borasida mahallalarda sayyor qabullar va sayyor sudlar o'tkazish, notinch va nizoli oilalar bilan individual suhbatlar o'tkazib, ularga murabbiylar biriktirib, bunday toifadagi oilalarda sog'lom muhitni shakllantirish bo'yicha choralari ko'rsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha tumanda kompleks chora-tadbirlar dasturining ijro etilishi yuzasidan tumandagi korxon va tashkilotlar rahbarlarining axborotini eshitib, tanqidiy muhokama qilib borsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” tuman gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tumanda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan **har chorak yakunida** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov